

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA - MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

Himoyaga ruxsat etildi
fakultet dekani, dotsent
_____U.Meliboev
«____»_____2016 y.

Kafedra mudiri, dotsent
_____X.Parpiev
«____»_____2016 y.

5320900 -"Yengil sanoat mahsulotlarini kontsruktsiyasini
ishlash va texnologiyasi" (to`qimachilik sanoati)
bakalavriat ta`lim yo`nalishi bo`yicha bitiruvchi

Abduraximova Umidaxon Rasuljon qizining

**“NORINTEKS” korxonasida paxta va lavsan tolasi
aralashmasidan ip ishlab chiqarish texnologiyasini joriy
etish mavzusidagi**

BITIRUV MALAKA ISHI

Bitiruvchi:

U. Abduraximova

Rahbar :

dots. I.R.Azizov

Maslahatchilar:

dots. I.R.Azizov

A.Akramov

NAMANGAN 2016 YIL.

MUNDARIJA

Kirish	3
1.POLIEFIR TOLALARIDAN TO`QIMACHILIK SANOATIDA FOYDALANISH	7
1.1 Paxta va lavsan tolalari aralashmasidan ip ishlab chiqarish.	7
1.2. Lavsan tolalarni titish va aralashtirish texnologiyasi.....	8
1.3.O`rta tolali paxta va lavsan tolalari aralashmasidan tayyorlanadigan to`qimachilik mahsulotlari assortimenti.....	11
2.KORXONANI MODERNIZATSIYALASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	12
2.1.“Norinteks” korxonasida to`qimachilik mahsulotlari uchun yigiriladigan iplar assortimenti.....	12
2.2. Ipning xossalarini loyihalash.....	15
2.3.Yigirish tizimini tanlash.....	20
3.YIGIRISH REJASINI TUZISH	35
3.1.Yigirish mahsulotlarining chiziqli zichligi va cho`zishni asoslash	35
3.2. Yarim tayyor mahsulotlarni pishitish darajasini hisoblash	38
3.3. Mashinalarni chiqaruvchi a`zolarini tezliklarini qabul qilish va asoslash.....	39
3.4. Mashinalarning nazariy ish unumdorligini aniqlash.....	43
3.5. Mashinalarning foydali vaqt koefitsenti, ishlash koefitsentlarini asoslash hisobiy unumdorlikni aniqlash.....	44
3.6. Texnologik jihozlardan olinadigan yarimmahsulotlarning o`lchamlari va massalarini tanlash.....	47
3.7. Ip, yarim tayyor mahsulot va chiqindilarni aralashmadan chiqish miqdorlarini aniqlash.....	49
3.8. O`timlar bo`yicha soatli topshiriqlarni hisoblash va taqsimlash.....	50
3.9. Jihozlar sonini aniqlash.....	57
3.10. Yigirish rejasini qayta hisoblash.....	58
4.«NORINTEKS» KORXONASI ISHLAB CHIO`ARISH, ISHLAB CHIQUARISH TSEXLARIDAN AJRALIB CHIQUADIGAN ZARARLI MODDALAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YULLARI	63
5.KORXONANING TASHKILIY-IQTISODIY KO`RSATKICHLARI HISOBI	69
5.1. Korxonada ishlab chiqarish dasturi.....	69
5.2. Xom ashyo balansi tuzish.....	71
5.3. Tugallanmagan ishlab chiqarish.....	71
5.4.Yoritish uchun sarflanadigan elektr energiya hisobi.....	79
Xulosalar va tavsiyalar....	83
Foydalanilgan adabiyotlar	85

K I R I Sh

Iste`mol bozorini yangi, xarodirgir matolar va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda yangilanishsh masalasi avvaldan yechimini topishi va uning texnik ta'minlanganligi ishlab chiqarishni rivojlanishiga asos bo`lishi mumkin.

Respublika to`qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muhim ob'ektlardan hisoblanadi. Sanoatni rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari paxta tolasidan import o`rnini egallay oladigan, eksportbop matolar ishlab chiqarishni ta'minlashga qaratiladi. Faqat shunday ishlab chiqarishgina tayyor mahsulotni olish va uni nafaqat ichki, balki tashqi bozorga chiqarishga, xom-ashyo eksportini kamaytirishga imkoniyatlar yarata oladi.

Ishlab chiqarish hajmi oshib borishi albatta mahsulot turini ko`paytirishni taqozo etadi. O`z navbatida assortiment muammosi xom-ashyo muammosini ham yuzaga keltiradi. Bu o`rinda sof paxta tolasidan tayyorlanadigan mahsulotlar bilan bir qatorda kimyoviy tolalarni qo`shib matolar olishni keng ko`lamda yo`lga qo`yish lozimligi nazarda tutiladi.

Sanoatni jadal rivojlantirish uchun yangi, ilg`or, tejamkor texnika va albatta texnologiyalarni joriy etish lozim. Bunday texnologiya xom ashyoni tayyor mahsulot darajasiga yetkazib borishni ta'minlagandagina iqtisodiy samarador bo`la oladi. Iqtisodiy jihatdan ishlab chiqariladigan mahsulot ichki va tashqi bozorda o`z xaridorini topgandagina kutilgan foydani olinishi mumkin. O`z navbatida bozorni talabi doimo o`zgaruvchan, qat'iy va nodavriy, sanoatni o`ziga moslashuvchan bo`lishini taqozo etadi. Agarda bunday talablar bajarilmasa, undan nafaqat sanoat jabr ko`radi. Shunday bo`lmasligi uchun faoliyat ko`rsatadigan korxonada assortiment imkoniyati keng, katta bo`lish lozim. [1.2.]

O`zbekiston Respublikasi to`qimachilik sanoatida qayta ishlanadigan paxta tolasidan maksimal darajada yuqori sifatli, import o`rnini bosuvchi, eksportbop

tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishni hal etishga mo'ljallangan ilmiy texnik muammolarni yechimini topish muhimdir. Ip gazlamalarni turlari juda ko'p bo'lib, ularni ishlab chiqarish o'ziga xos shart sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Hozirgi kundagi ishlab chiqarishdagi kamchiliklar jumlasidan gazlamalarni turlarini kamligi, ularning sifati, eni iste'mol talablariga to'liq javob bera olmasligini alohida e'tirof etish mumkin. Bunday holat birinchi navbatda texnik qurollanganlik, ya'ni to'quv dastgoxlarini imkoniyatlari bilan bog'liq. Ikkinchidan paxta tolasi ip gazlamalarni tashqi sifatini to'la ta'minlay olmaydi. Agarda unga ma'lum miqdorda (o'rtacha 15-40%) kimyoviy tola qo'shib ishlatilsa, olinadigan maxsulotni iste'mol xossalari yaxshilanadi, chidamliligi ortadi. Ana shunday gazlamalardan hozirgi kunda asosan import qilinayotgan kuylakbop matolar va xususan erkaklar kuylaklarini ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Hozirgi kunda Respublikada ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan nitron va atsetat kabi kimyoviy tolalar xususiyatlari jahon andozalarida ip gazlama ishlab chiqarishda foydalanishni cheklanganligini hisobga olib, kimyoviy tolalarni qaysi turlardan va qancha miqdorda qo'shib ishlatish hisobiga ip gazlamalarni turini ko'paytirish, ularni ichki va tashqi bozorda xaridorgir bo'lishini ta'minlash, alohida olingan korxonada assortimentni turini ko'paytirish, ishlab chiqarishni moslashuvchanligini uzluksiz bo'lishini ta'minlay oladigan texnologiyani yaratish lozim.

Paxta tolasidan ishlab chiqariladigan matolarning assortimenti keng bo'lib, ularni foydalanish ko'lamini o'zgarib bormoqda. Jumladan, texnik maqsadlarda ishlatiladigan ip gazlamalar o'rnini noto'qima matolar egallayotgan bo'lsa, ip mahsulotlari kimyoviy xom ashyo bilan almashtirilmogda. Bunday o'zgarishlar asosan mahsulot tannarxini arzonlashtirish bilan bir qatorda tabiiy, qimmatbaho hisoblanadigan paxta tolasidan ko'proq kiyimbop ip gazlamalar olishga qaratilgan. O'z navbatida kiyimlar tayyorlash uchun mo'ljallangan ip gazlamalarning iste'mol xossalarini ta'minlash uchun kimyoviy shtapel tolalardan qo'shib, ishlatishni taqozo etmoqda. [3]

Ushbu holatni hisobga olib paxta va kimyoviy tolalar aralashmasidan zamon talabiga mos, iqtisodiy samarador tayyor matolar ishlab chiqarish texnologiyasi yaratish hozirgi kunda **dolzarb** masala deb aytish mumkin.

Shuning uchun ushbu ishimiz O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoatida qayta ishlanadigan paxta tolasidan maksimal darajada yuqori sifatli import o'rnini bosuvchi, eksportbop tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishni hal etishga mo'ljallangan muammoni yechimini topishga qaratilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va ularning taxlilidan ko'rinib turibdiki, kimyoviy tolalarni paxta tolalari bilan aralashmasidan ip yigirishni joriy etish shu kunning zarur, dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. O'z navbatida mavjud ip yigirish korxonalaridagi jixozlarni yangilash, qayta jihozlash loyihalarini amalga oshirish yo'llarini aniqlab berish muhim vazifa xisoblanadi. Paxta tolasidan ip ishlab chiqarish korxonasini qayta jixozlash maqsadga muvofiq. Shuning uchun ham ushbu ishining **maqsadi** paxta tolasini va kimyoviy tolalar aralashmasidan ip yigirish tizimini texnik imkoniyatlarini tadqiq etish asosida korxonalarga shoyi gazlamalar ishlab chiqarishni joriy etishning tartibi va yo'llarini belgilashga qaratilgan. Ish natijalarini Namangan viloyatidagi "Norinteks" korxonasini modernizatsiya qilish bilan bog'lash uni joriy etish tanlab olindi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun qo'yidagi vazifalar bajarildi.

- O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoatida mavjud iplar assortimenti va istiqbollari o'rganildi;
- paxta va lavsan tolalari aralashmasidan ip ishlab chiqarish
- lavsan tolalarni titish va aralashtirish texnologiyasi
- o'rta tolali paxta va lavsan tolalari aralashmasidan tayyorlanadigan to'qimachilik mahsulotlari assortimenti
- korxonani modernizatsiyalash muammolari va yechimlari
- "Norinteks" korxonasida joriy etilgan texnika va texnologiya
- korxona uchun to'qimachilik mahsulotlari assortimenti
- Ipning xossalari loyihalash
- Yigirish tizimini asoslash.

Belgilangan vazifalarni bajarishda o`rta tolali paxta, viskoza, lavsan tolalaridan ip iygirishning karda tizimi asos qilib olindi.

Ishning amaliy ahamiyati;

Natijalarni “Norinteks” korxonasida joriy etish katta iqtisodiy ahamiyatga ega va quyidagi samarani beradi;

Olib borilgan tadqiqotlar korxonada turli tolalar aralashmasidan ip yigirish texnologiyasini joriy etish asosida jaxon standartlari talabiga javob bera oladigan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish mumkinligini ko`rsatadi.

1. POLIEFIR TOLALARIDAN TO`QIMACHILIK SANOATIDA FOYDALANISH

1.1 Paxta va lavsan tolalari aralashmasidan ip ishlab chiqarish

Har qanday ishlab chiqaruvchi korxona faoliyatini kompleks muvofiqlashtirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, uni hal etish doimo dolzarb va yangilanib boruvchi bo'ladi. To'qimachilik sanoatida texnologik jihozlar va texnologiya jadal yangilanib borishi, xom ashyoni o'ta qimmatligi va eng muhimi mahsulot turiga bo'lgan extiyojni o'zgaruvchanligi masalani eng og'ir jihatlari hisoblanadi. Shuning uchun ushbu omillarni sanoatda ishlab chiqarishni texnik iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash borasida amaliy tatqiqotlar va taxlillar amalga oshirilmoqda. To'qimachilik sanoatini xom ashyo zahirasi juda keng va hajmi kata bo'lsa ham uni mahsulot tannarxida o'ta katta ulushni tashkil etishi samarador texnologiyalarni tanlash, izlash, qo'llashni taqoza etadi.

Kimyoviy shtapel tolalar to'qimachiliklik sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan ip gazlama sanoati, shu jumladan, ip yigirish korxonalarining asosiy xom ashyosidir. Paxta kimyoviy tolalar aralashmasidan yigirilgan shtapel ipdan olingan gazlamalar chiroyli, pishiq, xaridorgir va arzon bo'ladi. Kimyoviy shtapel tola va iplarning to'qimachilik sanoatida xom ashyo sifatidagi ahamiyati tobora oshmoqda va ularning hissasi ko'paymoqda.

Kimyoviy tolalarning xossalari ularning tarkibiga va tola μosil iilish usullariga bo'llii brladi. Sanoatda iste'moldagi talablarga muvofiq belgilangan ixtiyoriy xususiyatlarga ega brlgan tolalar hosil iilish mumkin.

Kimyoviy tolalar ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lgan polimerlar va monomerlarning turlari juda ko'p bo'lib, ularning ayrimlarigina sanoat ahamiyatiga ega. Jumladan to'qimachilik sanoati uchun sintetik tolalar ishlab chiqarishda polimerlarning bir nechta guruhlari ishlatiladi. Har bir guruh polimerlaridan ko'plab nomdagi tolalar ishlab chiqarish mumkin.

Poliefirlar makromolekulalaridagi μ ar bir bo'g'in rzaro murakab efir guruhi bilan bollangan yuiori molekuli birikmalar bo'lib, ulardan polietilentereftalat lavsan tolasi olish uchun xom ashyo hisoblanadi. Ushbu polimer tereftal kislota bilan etilenglikolning polikondensatlanishi mahsulotidir. Ayrim mamlakatlarda lavsan tereftalat kislotasidan emas, balki uning metil spirti bilan o'zaro ta'sirlanish reaksiyasining mahsuli - dimetiltereftalatdan olinadi.

Poliefirlardan ishlab chiiariladigan tolalarning taxminan 75% ni shtapel tola, iolganini esa texnik va kompleks iplar tashkil etadi.

Lavsan tolasi harorat rzgarishlariga eng chidamli, Iijim brlmaydigan, kam kirishadigan, yorullik nuri, ob- μ avo va iuyosh nuri radiatsiyasiga, mikroorganizmlar va iuyosh nuri ta'siriga chidamli. Lavsan tolasining nisbiy uzilish kuchi 57 sNG'teks, uzayishi 18-28%. U 160-170°S da yumshaydi va 260°S da suyuladi. Ammo uning rziga xos kamchiliklari jumlasiga namlikni kam yutishi, yaxshi bryalmasligi va undan tayyorlangan kiyim-kechaklarning chetlarida tolalarning uchlari yumaloilanib, rralib iolishi natijasida matoning sifatini buzilishi, ishqalanishga chidamsizligi kiradi.

Modifikatsiyalangan poliefir tolalar va boshiacha kimyoviy iurilishga ega brlgan poliefirlardan olingan tolalarda bunday nuisonlar deyarli brlmaydi. Lavsan tolasini jun tolasi bilan aralashtirib ishlansa, undan olingan mato va buyumlarning uzilish kuchi oshadi, yorullik nuri va ob- μ avo ta'siriga chidamliligi ortadi. Lavsan va paxta tolalari aralashmasidan olingan mato va buyumlarning elastikligi yuqori, Iijimlanishi kam bo'ladi. Bu tolalardan, sof yoki aralashmasidan triimachilik sanoatida μ ar xil gazlama, trikotaj va kiyimlar ishlab chiiariladi. [4]

Poliefir tolalar suyultirilgan kislotalar va ishior ta'siriga, μ atto yuiori μ aroratga μ am chidamli, xona μ aroratida organik erituvchilar unga ta'sir etmaydi, oksidlovchilar esa yuiori μ aroratda μ am unga ta'sir etmaydi.

1.2. Lavsan tolalarni titish va aralashtirish texnologiyasi

Ip yigirish korxonalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, kimyoviy shtapel tolalarning asosiy xossalari paxta tolasining asosiy xossalariga o'xshash bo'lgani

uchun undan oddiy (karda) ip yigirish tizimida shtapel ip olish iqtisodiy jihatdan eng foydali hisoblanadai. Shu sababli karda tizimida qo'llaniladigan mashinalar va yigirish rejalaridan to'la foydalaniladi. Ammo, ba'zi xossalari paxta tolasi xossalariidan bir oz farq qilishi tufayli texnologik jarayonni tanlashda va uni tashkil qilishda mana shu xossalari e'tiborga olinadi.

Kimyoviy tolalar bilan paxta tolasining nisbati qancha optimal bo'lsa, undan olingan mahsulot shuncha sifatli bo'ladi. Ammo nisbat optimal bo'lishidan qat'i nazar, kimyoviy shtapel tola bilan paxta tolasi yaxshi aralashtirilmasa, bunday aralashmadan sifatli mahsulot olib bo'lmaydi. Shuning uchun aralashtirish jarayonini yaxshi tashkil qilish va uni to'g'ri amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Aralashtiriladigan kimyoviy tolalar va paxta tolasining xili, xossalariiga, o'rnatilgan mashinalarning turiga, ipni nima uchun ishlatilishiga qarab, ular turli usullarda aralashtiriladi.

Kimyoviy shtapel tolalar bilan paxta tolasini aralashtirib ip olishning bir nechta usullari mavjud. Bularning ichida eng ko'p tarqalgani — qatlam-qatlam qilib aralashtirish, mashinalarning kameralarida aralashtirish va piltalarni qo'shib aralashtirish usullaridir.

Qatlam-qatlam qilib va kamerada aralashtirish usullari kamchiliklardan xoli emas. Birinchidan, kimyoviy shtapel tola paxta tolasi bilan aralashayotgan paytda titish-savash-tarash mashinalari ta'sirida kimyoviy shtapel tolalar maydalanib ketishi natijasida tolalarning ma'lum qismi chiqindiga aylanadi. Buning oqibatida olingan mahsulot sifati yomonlashadi va xom ashyo isrof bo'ladi. Ikkinchidan, ta'minlovchi-aralashtiruvchi mashinalar xar xil tezlikda ishlashi sababli komponentlar notekis aralashadi. Shuning uchun piltalarni qo'shib aralashtirish usuli eng avval har bir komponent titish-savash-tarash mashinalaridan alohida-alohida o'tkaziladi, so'ngra pilta mashinalarida kimyoviy shtapel toladan alohida pilta olinadi va bu piltalarni yuqorida aytilgan ma'lum nisbatga rioya qilgip holda paxtadan olingan piltalar bilan qo'shib, pilta mashinasidan o'tkaziladi.

Paxta tolasini kimyoviy shtapel tolalar bilan aralashtirib ishlash uchun karda tizimida paxtani qayta ishlash uchun foydalanilgan mashinalar ishlatiladi. Ammo

texnologik jarayon to'g'ri va yaxshi borishi uchun kimyoviy shtapel tolalarning ba'zi xossalari hisobga olish zarur.

Kimyoviy tolalarni tarashga tayyorlash jarayonlari ularning xossalari va xususiyatlariga ko'ra tabiiy tolalardan farqlanishiga, ularni o'lchamlari va aralashmadagi miqdoriga asoslanib belgilanadi.

Kimyoviy tolalarni tarashga tayyorlash uchun yuqoridagi agregatlardan tashqari turli firmalarning texnologik zanjirlarini ham qo'llash mumkin. Bular qatoriga «Artos», «Temafa», «Truchler», «Rieter» va boshqa firmalarni ko'rsatish mumkin. [5,6,7]

Truchler firmasi kimyoviy tolalarni titish va aralashtirish uchun tavsiya etgan agregatlar tarkibiga kiruvchi jihozlarning turlari tolalar aralashmasining tarkibiga qarab tanlash uchun bir qator variantlarni tavsiya etadi. Unumdorligi yuqori bo'lmagan agregatlarni titib-ta'minlovchi (masalan, BOA yoki BOW) yordamida ta'minlanadi. Toy tituvchi va aralashtiruvchi mashinalarning tuzilishi paxta tolasiga mo'ljallangan jihozlardan deyarli farqlanmaydi. Bunda firma katta e'tiborni jihozlarni ta'minlashga qaratgan. Tolalarni nafaqat titish darajasini oshirish, ularni navbatdagi jihozga bir tekisda uzatish uchun rostlagichlarning ko'plab turlari qo'llaniladi.

Riter firmasi bir necha turdagi va rusumdagi mashinalarni ishlab chiqaradi. Undagi jihozlarning ro'yxati esa uning ostidagi jadvalda keltirilgan. Titish-tozalash agregatida avtomatik toy tituvchi UNIfloc A11 dan chiqayotgan, titilgan tolalar dastlabki og'ir aralashmadan tozalovchi A48 da tozlanadi. UNIClean B12 da yirik nuqsonlardan tozalangandan keyin aralashtiruvchi mashina UNImix B72 da aralashtiriladi. So'ngra tolalarni jamlagich va titib-ta'minlagichga beriladi. Keyin kamerali aralashtiruvchi mashina UNIBlend A81 da qaytimlar va kimyoviy tolalar bilan aralashtiriladi.

Kimyoviy tolalar esa toy tituvchi B 34 da titilgach mayin tozalovchi mashinada qayta ishlanadi va tarash mashinalariga taqsimlovchi tizimiga uzatiladi.

1.3.O`rta tolali paxta va lavsan tolalari aralashmasidan tayyorlanadigan to`qimachilik mahsulotlari assortimenti

To`qimachilik mahsulotlari ichida ip gazlamlar katta ulushga ega. To`qimachilik materialshunosligi ta'rifiga ko`ra ip gazlamlar asosan yengil va o`rtacha zichliklarda bo`ladi.

Ip gazlamalar turlari juda ko`p va xilma - xildir. Ularni ishlab chiqarishda turli chiziqli zichlikdagi yakka, pishitilgan va shakldor iplar ishlatiladi. Ayrim hollarda bu to`qimalarni ishlab chiqarishda sof paxta tolalaridan yigirilgan iplardan tashqari, aralash (paxta tolasi bilan kimyoviy tolalar aralashmasidan) tolalardan yigirilgan iplar ham ishlatiladi.

Ip gazlamalar klassik assortimentining katta qismini chit, bo`z, satin, batis, markizet, mal-mal, doka va boshqalar tashkil etadi. Savdo preyskuranti bo`yicha ip gazlamalar bir necha guruhlariga bo`linadi: chitlar, bo`zlar (surup), ich kiyimlik to`qimalar, satinlar, ko`ylaklik to`qimalar, kiyimlik, maxsus to`qimalar va alohida buyumlar.

Ip gazlamlar jumlasiga kiruvchi erkaklar ko`ylakli matosi savdo tasnifiga asosan alohida guruh hisoblanadi. Bu matodan o`z navbatida ko`ylaklar tikiladi.

Ko`ylakli mato tuzilishiga va to`qilishiga ko`ra oddiy va murakkab o`rilishli turlarga bo`linadi. Ularni o`rtacha va ingichka iplardan to`qiladi. Iplarni yakka, bir qavatli yoki pishitilgan, ko`p qavatli turlari ishlatiladi.

Ko`ylakli matolarga qo`yiladigan eng muhim va bosh talab ularni namlikni shimishidir. Namlikni shimish darajasini kapillyarlik deb nomlanadigan kursatkich bilan baholanadi. Ko`lakbop matolarni har biri o`ziga xos zichlikga va tuzilishga ega bo`lishi bilan bir qatorda ularni o`xshashligi iplarni bir xilligi bilan ajraladi. [8]

2. KORXONANI MODERNIZATSIYA LASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

2.1. “Norinteks” korxonasida to`qimachilik mahsulotlari uchun yigiriladigan iplar assortimenti

Amaldagi korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish muhim vazifalar jumlasiga kiradi. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo`naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

“Norinteks” korxonasi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1996 yil 27 sentyabrdagi 37-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Korxona 1999 yil 1 yanvardan o`z ish faoliyatini boshlagan. Korxonada ishlab chiqarilgan kalava iplar asosan eksport qilinadi.

Bu o`rinda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o`tish bo`yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarini amalga oshirishni tezlashtirish vazifasi qo`yilmoqda. O`z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo`lishini ta`minlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarishda korxonaning qurollanganlik darajasi va undagi jihozlarning texnik holati muhim hisoblanadi. Ip sifati va iplarni turi to`qimachilik mahsulotlari assortimentini belgilaydi. Yangi turdagi ishlab chiqarishni yuzaga keltirish uchun ushbu malaka ishida korxonani zamonaviy texnologiya asosid qayta qurollantirish texnologiyasini loyihalash vazifasi bajarilgan.

Loyihada qabul qilingan mato texnik ko`rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan. To`qimalar uchun zarur iplarning xossalari 2-jadvalda keltirilgan. [9,10]

1.3.Gazlamalarning texnik ko`rsatkichlari

Gazlama nomi	Gazlama artikuli	Gazlama eni, sm	Ipning chiziqli zichligi, teks			Iplar soni		10sm dagi iplar soni		qisqarish	
						jami	Shundan qirg'oq iplari	P_T	P_A	a_T	a_A
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
erkaklar ko`ylakli matosi	1307	110	15,4grx2 33%VPef	16,5gr 33%VPef	16,5grx2 33%VPef	2752	48	248	262	5,2	7,3

1-jadvalni davomi

Gazlama nomi	Tig'			o'rilish	Dastgoh turi	Gazlamani yuza zichligi, gG'm ²	Chikindi miqdori		100 p.m. gazlama uchun ip sarfi, kg	
	nomeri	1 ta tishga ip soni					Tanda to'yicha	Arqoq bo'yicha	Tanda to'yicha	Arqoq bo'yicha
		asos	qirg'oq							
1	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
erkaklar ko`ylakli matosi	115	2	4	Aralash	AT	110	0,74	1,32	6,940	5,130

To`quvchilikda foydalanishga mo`ljallangan iplarning fizik mexanik xossalari

Ipning tuzilishi	Konditsion chiz. Zichlikni ruxsat etilgan farqi,%	Navi	Yakka ipni sinalganda		Uzilish kuchi bo`yicha variatsiya kofef-ti	Chizio`li zichlik bhyicha variatsiya k-ti, %	Pishitish koeffitsienti
			Ipning nisbiy uzilish kuchi				
			Gs/teks	mN/teks			
15,4grx2 33%VPef	+1,5 -2.5	birinchi	17,1	167,6	8,8	1,95	47,4
		ikkinchi	15,9	156,0	11,2	1,41	
		uchinchi	14,7	144,2	13,1	1,12	
16,5gr 33%VPef	+1,5 -2.5	birinchi	17,4	170,7	8,8	1,99	47,4
		ikkinchi	16,2	158,9	11,2	1,44	
		uchinchi	14,7	144,2	13,1	1,12	

2.2. Ipning xossalarini loyihalash

Iplar ishlab chiqarish uchun xom ashyo tanlash va uni tekshirish

Paxta tolalari Rst O`z 604-2001 ga muvofiq tiplar va saonat navlariga bo`linadi. Tolalar o`zining fizik texnik ko`rsatgichlari: shtapel vazn uzunligi, chiziqli zichligi va solishtirma uzilish kuchiga (I va II navlar) ko`ra belgilangan me`yorlarga muvofiq to`qqizta tiplarga bo`linadi. 1a, 1b, 1, 2, 3 tipdagi paxta tolasi ingichka tolalai, 4-7 tipdagilari esa o`rtacha tolali navlarga kiradi. Har bir tipdagi paxta tolasi rangi va pishib yetilganlik koeffitsienti bo`yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan namunalarga muvofiq beshta navga bo`linadi.

Paxta tolasi nuqsonlari va iflos aralashmalarining miqdoriga ko`ra o`zining har bir naviga qarab ko`rsatilgan talablarga muvofiq sinflarga bo`linadi. Konditsion vaznni hisoblash uchun namlikning me`yorlangan vazniy nisbati -8,5%. Namlikning eng kichik vazniy nisbati – 5.0 %.

Ushbu ishda aralash tolalardan yigiriladigan iplar uchun o`rta tolali paxta tavsiya etiladi. Halqali usulda ip yigirish uchun quyidagi (3-jadval) tipaviy aralashma tavsiya etilgan.[11]

Tavsiya etilgan tipaviy sortirovkalar

3-jadval

Ipning nominal chiziqli zichligi, teks	Ipning nominal nomeri	Ipni turi (ishlatilishi)	Paxta tolasi aralashmasi
15,4	65	to`quvchilikda	4-I
16,5	60	to`quvchilikda	4-I;4-II

Ishning maqsadiga muvofiq tavsiyalarga asoslanib, yangi standartlarga asosan a iplar uchun 2-I, 2-ShI, tipaviy aralashmani tanlaymiz.

Tavsiya etilgan tipaviy aralashmaga asosan paxta tolasining selektsiya navini tanlaymiz. Ushbu paxta tolasining texnologik xususiyatlari va xossalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Paxta tolasining sifat ko`rsatkichlari

Paxta tola- sini tipi	Selek sion navi	Terish usuli	Sanoat navi	Namlilik, %	Shtapel uzunlik, mm	Var-ya kef-ti	Pishish Koef-ti	Chiziq zilik, mteks	Uzilish kuchi, sN	Nisbiy uzish kuchi	Xas-cho`p miqdori %
4	133	Mashina	I	4,8	35,1	-	2	153	4,4	28,8	4,4
		Mashina	II	5,1	35,1	-	1,9	148	4	27	5,5

Lavsan tolasining fizik mexanik xossalari

5-jadval

№	Ko`rsatkichlar	O`lchov birliklari	Qiymatlari
1	Chiziqli zichligi	mteks	167
2	Uzulish kuchi	sN	5,44
3	Modal uzunlik	mm	35,4
4	Shtapel uzunlik	mm	36,3
5	Tola uzunligi	mm	34,9

7	Uzayishi	%	36,2
8	Dag'al va yopishqoq tolalar	%	0,019
9	Kesilmagan tolalar	%	0,087
10	1 sm.dagi jingalaklilar soni	dona	11
11	Nisbiy uzilish kuchi	sNG'teks	32,6

Sintetik va paxta tolalarning aralashmasidan yigiriladigan ipning nisbiy uzilish kuchini A.N.Vanchikov taklif etgan formula orqali aniqlanadi. [12]Bu formulaning umumiy ko`rinishi quyidagicha

$$R_{ap} = R_{map} \cdot K_{ap}$$

bu yerda;

R_{ap} - paxta va kimyoviy tolalardan olingan ipning nisbiy pishiqligi sN|teks; R_{map} - aralashmadagi tolalarning o`rtacha nisbiy pishiqligi, sN|teks; K_{ap} - aralashmadagi tolalarning pishiqligi koeffitsienti;

K_{ap} - quyidagi formula yordamida aniqlanadi

$$K_{ap} = K_1 - a\beta_2 + b\beta_2^2$$

Bu yerda: K_1 -kam cho`ziluvchan tolaning pishiqligi bo`yicha koeffitsienti;

β_2^2 - ko`p chrzuluvchan komponentning ulushi, %.

$a....b$ – koeffitsientlar,

Bu koeffitsientlar quyidagicha aniqlanadi.

$$a = 1 - \sqrt{\frac{\varepsilon_1}{\varepsilon_2}}$$

$$b = \left(1 - \sqrt{\frac{\varepsilon_1}{\varepsilon_2}}\right) \sqrt{\frac{T_1}{T_2}}$$

bu yerda: $\varepsilon_1, \varepsilon_2$ - komponentlarning nisbiy choʻziluvchanligi.;

T_1 -kamroq choʻziluvchan tolaning chiziqli zichligi, teks.;

T_2 - koʻproq choʻziluvchan tolaning chiziqli zichligi, teks.;

r -tolaning struktura xususiyatlariga bogʻliq koeffitsient;

($r = 1.1$ - boʻlishi mumkin, qachonki paxta tolasi viskoza tolasi bilan aralashtirilgan boʻlsa; $r = 1$ -boʻlishi mumkin, qachonki paxta sintetik tolalar bilan aralashtirilgan boʻlsa.

$r = 0.8$ -boʻlishi mumkin, qachonki viskoza sintetik tolalar bilan aralashtirilgan boʻlsa.

$r = 0.6$ -boʻlishi mumkin, qachonki viskoza bilan nitron aralashtirilgan boʻlsa).

15,4 teks X2 ip uchun

$$K_1 = \left(1 - 0,0375 \cdot H_0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{T_p}{T_c}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{L_c} \right) k\eta =$$

$$= (1 - 0,0375 \cdot 3,5 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{15,4}{0,153}}}) (1 - \frac{5}{35,1}) \cdot 0,98 \cdot 1,0 =$$

$$(1 - 0,13125 - 0,264) \cdot 0,8573 \cdot 0,98 = 0,5081$$

$$a = 1 - \sqrt{\frac{8,7}{36,2}} = 0,51$$

$$b = \left(1 - \sqrt{\frac{8,7}{36,2}} \right) \cdot \sqrt{\frac{137}{170}} = 0,46$$

$$K_{ap} = 0,5081 - 0,51 \cdot 0,33 + 0,46 \cdot 0,33^2 = 0,39$$

$$R_{ap} = (28,8 \cdot 0,67 + 32,6 \cdot 0,33) \cdot 0,39 = 11,72 \text{ sN / teks}$$

16,5 teks X2 ip uchun

$$K_1 = \left(1 - 0,0375 \cdot H_0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{T_p}{T_c}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{L_c} \right) k\eta =$$

$$= (1 - 0,0375 \cdot 3,5 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{16,5}{0,153}}}) (1 - \frac{5}{35,1}) \cdot 0,98 \cdot 1,0 =$$

$$(1 - 0,13125 - 0,255) \cdot 0,8573 \cdot 0,98 = 0,5156$$

$$a = 1 - \sqrt{\frac{8,7}{36,2}} = 0,51$$

$$b = \left(1 - \sqrt{\frac{8,7}{36,2}} \right) \cdot \sqrt{\frac{137}{170}} = 0,46$$

$$K_{ap} = 0,5156 - 0,51 \cdot 0,33 + 0,46 \cdot 0,33^2 = 0,3974$$

$$R_{ap} = (28,8 \cdot 0,67 + 32,6 \cdot 0,33) \cdot 0,3974 = 11,94 \text{ sN / teks}$$

Tegishli formulalar yordamida yakka ipning nisbiy uzilish kuchini aniqlash natijasini ip sifatiga qo'yilgan talab bilan solishtirib aralashmaning shu varianti mos kelishini baholanadi. Pishitilgan ipni nisbiy uzilish kuchini pishiqlik koeffitsientini inobatga olib aniqlaymiz: $K_{yn} = 1,28$ [11].

Shunday qilib, loyihada ko'rsatilgan ip uchun tanlangan xom ashyo tarkibi 4-tip I nav paxta tolasi va lavsan tolasidan iborat bo'lganda ipning nisbiy uzilish kuchi standartda belgilangan nisbiy uzilish kuchidan yuqori bo'lishi aniqlandi.

2.3.Yigirish tizimini tanlash

Tolalardan ip hosil qilish ketma-ketligini yigirish tizimi deb atash qabul qilingan. Bunda yigirish tizimi tushunchasi fakat jarayonlar ketma-ketliginigina emas, balki texnologik jihozlar ro'yxatini yigirish korxonalarida qabul qilinish tartibini ham o'z ichiga oladi.

Tabiiy va kimyoviy tolalardan ip yigirishning quyidagi asosiy tizimlari mavjud: oddiy (kard), qayta tarash va apparat tizimlari. Bu tizimlar asosan ikkita belgilovchi alomatlar - tarash usuli va mahsulotni ingichkalashtirish usullari bilan farqlanadi.

Oddiy yigirish tizimi bo'yicha o'rta chiziqli zichlikdagi iplar yigiriladi. Bunday iplar keng assortimentdagi ip gazlamalar va trikotaj matolari ishlab chikarish uchun foydalaniladi.

Bitiruv malaka ishida tanlangan chiziqli zichlikdagi iplarni yigirish uchun karda tarash tizimini va halqali yigirish usulni qabul qilaman.

Ushbu tizimda ip yigirishni zamonaviy yutuqlari, tavsiyalar va tajribalar asosida qabul qilingan jihozlarni ro'yxati 6-jadvalda keltirilgan.[5,6,12]

Bu tizimda asosan Rieter va Savio firmalarining mashinalarini olish rejalashtirilgan. Rieter firmasi paxta va kimyoviy tolalardan halqali va pnevmomexanik usullarda ip yigirish uchun mo'ljallangan to'la texnologik zanjirni tashkil etuvchi jihozlarni ishlab chiqaradi. Savio firmasi esa iplarni o'rash, qo'shib o'rash va pishitish mashinalari yetkazib beradi.

Qabul qilingan jihozlar o'zining konstruktiv, texnik va texnologik avfzalliklari bilan, jumladan yuqori unumdorligi, avtomatlashganligi va mahsulot sifatini yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi.

Ushbu tizim asosida quyidagi jixozlarni qabul qilaman:

№	Jihoz nomi	Jihoz rusumi
1	Avtomatik toy tituvchi	UNIfloc A 11
2	Toy tituvchi	V 34
3	Og`ir aralashmani ajratuvchi	A 48
4	Qaytim va chiqindi titib-ta`minlovchi	V 25
5	Dastlabki tozalovchi	V 12
6	Aralashtiruvchi	UNImix B72R
7	Tola jamlagich va titib-ta`minlagich	1x UNIstore A 79 R
8	Aralashtiruvchi	UNIBlend A81
9	Tola jamlagich va titib-ta`minlagich	3x UNIstore A 79 S
10	Kondensor	A 21
11	Tarash mashinalari	S 70
12	Piltalash mashinalari	SB –D 45
13	Pilta qo`shishi mashinalari	UNILAP 3
14	Qayta tarash mashinasi	E 66
15	Piltalash mashinalari	SB –D 45
16	Piltalash mashinalari	RSB –D 45
17	Piliklash mashinasi	F 35
18	Yigirish mashinasi	G 35
19	O`rash avtomati	Savio ORION EI
20	Iplarni qo`shib o`rash mashinasi	TUAN-BL
21	Pishitish mashinasini	TDS

Ko'rsatilgan jihozlar uzining avfzalliklari bilan, jumladan yuqori unumdorligi avtomatlashganligi va mahsulot sifatini yukori bo'lishini ta'minlaydi. Quyida jihozlarning texnik tavsiflari keltirilgan.

Kursatilgan jixozlar uzining avzalliklari bilan, jumladan yukori unumdorligi avtomatlashganligi va maxsulot sifatini yukori bulishini ta'minlaydi. Kuyida jixozlarning texnik tavsiflari keltirilgan.

Avtomatik toy titgichning texnik tavsifi

Ishlatiladigan tola uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	
birinchi nav tola uchun	1200
quyi navlvr uchun	600
Titilgan bulakcha og'irligi, mg	20 - 50
O'rnatilgan quvvat, KVT	11,5
Stavkaning uzunligi, m	7,2 – 47,2
Mashina uzunligi, mm	12913-52913
Mashinani kengligi, mm	5351 (6536
Balandligi, mm	2763
Mashina massasi, kg	3320

B 3/4 Titib ta'minlovchi mashina texnik tavsifi

Ishlatiladigan xom ashyo paxta, kimyoviy tola va ularni aralashmasi

Tola uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	600 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	2,85
Mashinani ishchi kengligi, mm	1200
Kamera hajmi, kg	25-40

Gabarit o'lchami: mm

uzunligi	3250
(ta'minlovchi qurilma uzunligi)	3000; 4500; 6000; 7500; 9000
Balandligi	3000
Ventilyator quviri bilan	3500
Kengligi	1600

Qaytim va chiqindi titib-ta'minlovchi B 25

Ishlatiladigan xom ashyo paxta, kimyoviy tola va ularni qaytimlari

Tola uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	60 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	3.15
Mashinani ishchi kengligi, mm	750
Gabarit o'lchami: mm	
uzunligi	5000
(ta'minlovchi qurilma uzunligi)	3000; 4500; 6000; 7500; 9000
Balandligi	2050
Kengligi	1150
Massasi, kg	1770

Tozalovchi UNiclean B12 mashinasini texnik tavsifi

Ishlatiladigan xom ashyo	paxta, kimyoviy tola va ularni aralashmasi
Tola uzunligi, mm	60 gacha
Unumdorligi, kg soat	1400 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	15,25
Mashinani ishchi kengligi, mm	1600
Gabarit o'lchami, mm uzunligi	2205

Balandligi	2000
Ventilyator quviri bilan	2500
Kengligi	1040
Mashina massasi, kg	1180

Aralashtiruvchi UNImix B72R mashinasini texnik tavsifi

Xom ashyo	paxta, kimyoviy tola, aralashma
Unumdorligi, kg soat	800 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	17,
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	7830
kengligi	1514
balandligi	4173
Og'irligi, kg	3850

Tola jamlagich va titib-ta'minlagich UNIstore A 79 R

Xom ashyo	paxta, kimyoviy tola, aralashma
Unumdorligi, kg soat	1100 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	12,6
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	1526
kengligi	1514
balandligi	3981
Og'irligi, kg	1820

Aralashtiruvchi UNIBlend A81 mashinasini texnik tavsifi

Xom ashyo	kimyoviy tolalar va aralashma
Unumdorligi, kg soat	1000 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	24.7
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	11940
kengligi	1600
balandligi	4663
Og'irligi, kg	13690

Agregatda avtomatik toy tituvchi UNIfloc A11 dan chiqayotgan, titilgan tolalar dastlabki tozalovchi UNIClean B12 da yirik nuqsonlardan tozalangandan keyin aralashtiruvchi mashina UNImix B70 da aralashtiriladi. So'ngra tolalarni mayin tozalovchi mashina UNIflex B60 da qayta tozalanadi va tarash mashinalariga taqsimlovchi tizimiga uzatiladi.

Rieter firmasining so'nggi yutuqlaridan biri bu C70 modeldagi yuqori unumdorlikka ega bo'lgan karda tarash mashinasidir. Mashinaning unumdorligi 280 kg/soat gacha bo'lib, shu kunlarda dunyoning turli hududlarida 2000 dan ortiq shunday mashinalardan foydalanilmoqda.

C70 modeldagi karda tarash mashinasidir texnik tavsifi

Ishlatiladigan tola	paxta, kimyoviy tola
Tolani uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	220 gacha
Tosni diametri, mm	600 - 1000
Tosni balandligi, mm	1000 - 1300
Ishchi kengligi, mm	1500
Gabarit o'lchami, mm	

uzunligi	3325 (6181)
kengligi	2380
balandligi	3470
Piltaning chiziqli zichligi, kteks	4-20
Tolalar to'shamining massasi, gG'm	650-950
O'rnatilgan quvvat, kVt	21.0-21.7
Pilta chiqarish tezligi, mG'min	330 gacha

Pitalash mashinalari texnik tavsiflari

7-jadval

Ko'rsatkichlar	texnik tavsiflari	
	1-o'tim uchun	2-o'tim uchun
O'tim	1-o'tim uchun	2-o'tim uchun
Mashina rusumi:	SB-D 45	RSB-D 45
Chiqarish qismi	1	1
Quvvati, kVt	11	11
Chiqaruv tezligi, mG'min	1100	1100
Qo'shish soni	6-8	6-8
Cho'zish	4,4-11,7	4.5-11.6
Idishni o'lchami, mm:		
kirishda	500-1000	500-1000
chiqishda	300-1000	300-1000
balandligi	900-1200	900-1200
Avtomatik chiqarish	-	Q
Rostlovchi	-	Q
Uzunligi, mm	10860	10860
Kengligi, mm	2460	2460
Piltaning chiziqli zichligi, kteks	1.25-7.0	1.25-7.0

Pilta qo'shishi mashinalari

Rieter firmasining pilta qo'shishi mashinalarini takomillashtirish borasidagi izlanishlari asosida Yangi rusumdagi UNilap ye32 mashinasi yaratildi. Ushbu mashina pilta qo'shish va ularni cho'zish vazifasini bajaradi. Mashina o'ziga xos bo'lgan afzalliklarni mujassamlashtirgan. Bulardan eng asosiysi mashinada yuqori unumdorlik va ishlashga, xizmat ko'rsatishga qulayliklar yaratilgan. Mashinada ikki qismli ta'minlash va cho'zish, qo'shish va cho'zish mexanizmlari o'rnatilgan. Piltalarni yo'naltirishda qulay va siftni saqlash moslamalariga asoslangan yo'naltiruvchilar o'rnatilgan.

8-jadval

UNILAP 2 va UNILAP 3 Texnik tavsifi

Unumdorligi, kg soat	360 gacha	
Tola uzunligi, mm	51 gacha	
Kiradigan pilta chiziqli zichligi, kteks	3,3-5	50-80
O`ramaning o`lchami, mm	600x1200 xolstcha	
Cho`zish	1,2-2,24	3,96-6,98
Chiqadigan xolstcha chiziqli zichligi, kteks	80	80
Xolstcha og`irligi, kg	25	25
Xolstcha eni, mm	300	300
Chiqarish tezligi, m min	80-100	80-100
O`rnatilgan quvvat, kVt	11	11
Gabarit o`lchami, mm		
uzunligi	7800	6600
kengligi	6600	1750

Xolstchalarni avtomatik chiqarish, tashish va yuklash uchun SERVOTrolley E 6/T va SERVOLap E 25 tizimlarini o'rnatilishi mashinaning foydali vaqt koeffitsientini ta'minlash bilan birgalikda avtomatlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Qayta tarash jarayonini

Qayta tarash jarayonini samarali amalga oshirish uchun o'ziga xos avfzalliklari jumlasiga Rieter firmasi mashinalarini quyidagi sifatlarini qo'shish mumkin:

- pilta sifatini yuqoriligi;
- o'rta va kalta tolalardan yarmi qayta taralgan va super kard iplari yigirish;
- turli nav paxta tolalarini tarash uchun moslashtirishni qulayligi;
- dinamik zuriqishni kamayganligi;
- avtomatlashtirish, xizmat ko'rsatishni qulayligi va germetikligi.

9-jadval

Qayta tarash mashinasining texnik tavsifi

	Mashina rusumi	
	E 66	E 76
Xolstchlarani yetkazib berish	Yarimavtomatik	To'liq avtomatlashgan
TSikl soni, min ⁻¹	500	500
Unumdorligi, kg/soat	72	74
Tarandi %	8-25	8-25
Chiqarish soni	8	8
Pilta soni	1	1
Idishni o'lchami, mm:		
diameri	600	600
balandligi	1200	1200
Qo'shish soni	8	8
Piltaning chiziqli zichligi, kteks	3-6	3-6

Xolstchanning chiziqli zichligi, kteks	64-80	64-80
O`rnatilgan quvvat	7,55	5,6
Gabarit o`lchami, mm		
uzunligi	7195	7195
kengligi	2054	2054
balandlishi	1873	3733

F 35 Pilik mashinalarning texnik tavsiflari

Urchuqlar soni	36-144
Bitta sektsiyada	12
O`rash balandligi, mm	400
O`rash diametri, mm	175
Urchuqni aylanishi, ayl min	1500
Pilikni chiziqli zichligi,	170-1450
Pilikni nomeri	0,7-5,9
Umumiy cho`zish	4-20
Chiqarish tezligi, m min	50 gacha
O`rnatilgan quvvat, kVt	50.2
Gabarit o`lchami, mm	
uzunligi	6920-20960
Kengligi (idish diametriga	508-3080
mos ravishda)	610- 4240
urchuqlar orasidagi masofa, mm	130

Yigirish mashinasi texnik tavsifi

Ko`rsatkichlari	G35	K 44
Yigirilgan tola	Paxta	Paxta
Tola uzunligi, mm	60	60
Ipning chiziqli zichligi, teks	3,7-132	3,7-59
Nomer	7,5-270	17-271
Buramlar soni, m min	3000	200-3000
Umumiy cho`zish	80-120	80
Urchuqning tezligi,	25000	25000
Urchuqlar soni	1632	1200
Sektsiyadagi	48	48
Urchuqlar orasidagi masofa	70,75	70,75
Xalqa diometri, mm	36-54	36-51
Naycha uzunligi, mm	180-250	180-250
O`rnatilgan quvvat, kVt	80	78
Gabarit o`lchami, mm		
uzunligi K](48)	63145	47500
Kengligi ajratuvchisiz	1062	1062
Ajratuvchi bilan	1340	1340
Balandligi	2170	2170
Kursatkichlari	G35	K 44

Italiyaning SAVIO firmasi turli rusmli bir necha modeldagi o`rash avtomatlarini ishlab chiqaradi. Bu o`rash avtomatlari bir necha yangi konstruktiv yechimlarni, elektron va avtomatik tizimlarni mujassamlashtirgan.

11-jadval

Savio ORION EI o`rash avtomati

Ipning nomeri	170 gacha
O`rash tezligi, m/min	2200 gacha
Naychadagi ip o`ramasi o`lchami	65x310
O`ralgan bobina diametri, mm	300
O`ralgan bobina kengligi, mm	152
O`ralgan bobinada ip og`irligi, gr	3500
O`rash qurilmalari soni	64
Gabarit o`lchami, mm	
kengligi	1230
uzunligi	26205
balandligi	3020
O`rnatilgan quvvati, kVt	23,8
Mashina og`irligi, kg	5155-11580

TUAN-BL iplarni qo`shib o`rash mashinasi

Pishitilgan ip ishlab chiqarishda eng asosiy texnologik bosqichlardan biri iplarni qo`shib o`rash jarayonidir. Iplarni qo`shib o`rashdan maqsad ma`lum uzunlikdagi bir nechta iplarni bir xil taranglikda, pishitish jarayoni uchun qulay o`ramda o`rab berishdan iborat. Italiyaning FADIS firmasi TUAN turidagi turli tola va iplarni qo`shib o`rash mashinalarini ishlab chiqardi. Mashina komp yuterlashtirilgan bo`lib,

unda o`rash tezligi hamda o`ram uzunligi avtomatik boshqariladi, uzilishlar va texnik nosozliklar vaqtida mashina avtomatik tarzda to`xtaydi. Taranglikni sozlovchi moslama bir vaqtning o`zida ipni yo`g`on va ingichka, tuguncha xosil bo`lgan qismida mashinani avtomatik to`xtatadi hamda ipdagi nuqsonlarni (neps) tozalaydi. Mashina uchtagacha yakka yoki qo`shilgan iplarni qo`shib o`rash imkoniyatiga ega.

12-jadval

Mashinaning texnik tavsifi

№	Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	Qiymati
1.	O`rash qurilmalari orasidagi masofa	mm	125-210
	O`rash qurilmalari soni, 1 ta sektsiyada jami	dona	6 60
	O`rash diametri	mm	150 gacha
	O`rnatilgan quvvat	kVt	9-21,5
	Ip o`ralgan (ta`minlanadigan) naycha o`lchami Diametri balandligi	mm	72 360
	O`rash tezligi	m/min	1100
	Qo`shishlar soni	dona	3
	Gabarit o`lchami Kengligi Balandligi uzunligi	mm	1620 3125 6770-24695

Pishitish mashinasi

Hozirgi kunda pishitilgan iplar ishlab chiqarishda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ko'p qirralidir. Bu muammolarni ijobiy hal etish uchun yangi texnologik jarayonlar va jihozlar yaratilmoqda. Urchuq bir marta aylanganda ipga ikkita buram beruvchi pishitish mashinalari jumlasida Savio (Italiya) firmasining TDS mashinasi ikki tomonlama bo'lib, tomonlar alohida dvigatellardan harakat oladi. Mashinada urchuqlar soni 372 tagacha. Mashinani qo'shib o'ralgan bobina yoki ikkita bir o'lchamdagi bobinalardan ta'minlash mumkin. Ipni ichi bo'sh urchuqqa zapravka qilish havo yordamida pnevmatik sistemada amalga oshiriladi. Bu mashinalar asosan o'raladigan va chiqariladigan bobinalar o'lchamlari va urchuqlar soni bilan farqlanadi.

Ipning nomeri mashina rusumi va unda o'rnatiladigan urchuq o'lchamlariga muvofiq tanlanadi.

13-jadval

Urchuq bir marta aylanganda ipga ikkita buram beruvchi
TDS turkumida pishitish mashinasini texnik tavsifi

Tavsif ko'rsatkichlari	TDS turkumi uchun
Urchuqlar orasidagi masofa, mm	190 (228)
Rotor diski diametri, mm	145 (160)
Urchuqlar soni, max	372 (310)
Ipning nomeri	10x2-120x2
Ip o'raladigan babina o'rash kengligi, mm	152
Ip o'raladigan babina o'rash diametri, mm	285
Urchuqni aylanish soni, ayl/min	12000

uzunligi, mm	5345-37265
kengligi, mm	1050
balandligi, mm	2150
Mashina og`irligi, kg	2605-14323
O`rnatilgan quvvat, kVt	
urchuq soni 30-132	22
156-180	30
204-228	37
252-372	60

3.YIGIRISH REJASINI TUZISH

Yigirish rejasini tanlashda ya'ni tanlangan xom ashyodan loyihalanayotgan chiziqli zichlikda ip yigirishni ta'minlaydigan qilib tuzilishi kerak. Yigirish rejasini quyidagilarni o'z ichiga oladi: [13]

- yarim fabrikatlarni chiziqli zichligini
- qo'shishlar sonini
 - pishitish darajasi
 - mashinalarni chiqaruvchi ishchi qismlarini aylanishlar soni
 - ish unumdorligi

Loyihadagi ipining chiziqli zichligi, tolalar aralashmasi tarkibini nazarda tutgan holda yigirish rejasini o'ziga xos bo'ladi. Shuning uchun quyida loyihada qabul qilingan iplar uchun natijalar ko'rsatiladi.

3.1.Yigirish mahsulotlarining chiziqli zichligi va cho'zishni asoslash

1.Tarash mashinasida piltaning chiziqli zichligi (T_p) va umumiy cho'zish (E)

a)Texnik tavsif bo'yicha

$$T_p = 3.5-6,5 \text{ kteks}; E=350 \text{ gacha};$$

b) loyihada qabul qildim

$$T_p = 4,5 \text{ kteks}; E = 110$$

2.Piltalash dastlabki utim

a) texnik xarakteristika bo'yicha

$$T_p = 2,8 - 5 \text{ kteks}; \quad E = 4 - 10; \quad d = 6 - 8$$

b) loyihada qabul qildim

$$T_p = 4,5 \text{ kteks}; \quad E = 8; \quad d = 8$$

3. Pilta qo`shish utimi

a) Texnik xarakteristika bo`yicha

$$T_p = 50 - 80 \text{ kteks}; \quad E = 1,2 - 2,24$$

b) Loyixada qabul qildim

$$E = 1,65; \quad T_p = 80 \text{ kteks}$$

4. Qayta tarash o`timi

a) Texnik xarakteristika buyicha

$$T_p = 3 - 6 \text{ kteks}; \quad d = 8$$

b) Loyihada qabul qildim

$$E = 142; \quad d = 8; \quad T_p = 4,5 \text{ kteks}$$

2. Piltalash birinchi o`timda piltaning chiziqli zichligi ( $T_p$ ), umumiy cho`zish (E) miqdori va qo`shish soni (d).

a) texnik xarakteristika bo`yicha

$$T_p = 2,8 - 5 \text{ kteks}; \quad E = 4 - 10; \quad d = 6 - 8$$

b) loyihada qabul qildim

$$T_p = 4,5 \text{ kteks}; \quad E = 8; \quad d = 8$$

3. Piltalash ikkinchi o`timda piltaning chiziqli zichligi ( $T_p$ ), umumiy cho`zish (E) miqdori va qo`shish soni (d).

a) texnik xarakteristika bo`yicha

$$T_p = 2,8 - 5 \text{ kteks}; \quad E = 4 - 11; \quad d = 6 - 8$$

b) loyihada qabul qildim

$$T_p = 5,5 \text{ kteks}; \quad E = 8; \quad d = 8$$

4. Piliklash mashinasida pilikning chiziqli zichligi (T_p) va umumiy cho`zish (E)

a) Texnik tavsif bo`yicha

$$T_{pq}=170-1450 \text{ teks}; E=4-20;$$

b) loyihada qabul qildim

$$T_p = 500 \text{ teks}; \quad E = 7,86$$

5. Yigirish mashinasida ipning chiziqli zichligi va umumiy cho`zish

a) texnik xarakteristika bo`yicha

$$T_i = 3,7 - 132 \text{ teks}; \quad E = 80 \text{ gacha}$$

b) loyihada qabul qilingan ipni chiziqli zichliklari va ularga muvofiq cho`zish quyidagcha:

$$T_i = 15,4 \text{ teks uchun} \quad E = \frac{T_p \cdot d}{T_i} = \frac{500}{15,4} = 32,4.$$

$$T_i = 16,5 \text{ teks uchun} \quad E = \frac{T_p \cdot d}{T_i} = \frac{500}{16,5} = 30,3.$$

6. Iplarni qayta o`rash avtomatda ipning chiziqli zichligi

a) texnik xarakteristika bo`yicha

$$T_i = 5,88 \text{ teks va undan yuqori};$$

b) loyihada qabul qilingan iplarni chiziqli zichliklari quyidagcha:

$$T_T=15.4 \text{ teks.}$$

$$T_A=16.5 \text{ teks.}$$

7. Iplarni qo`shib o`rash mashinasida ipning chiziqli zichligi

a) texnik xarakteristika bo`yicha

$$T_i = 5,88 \text{ teks va undan yuqori}; \quad d = 3 \text{ gacha}$$

b) loyihada qabul qilingan iplarni chiziqli zichliklari quyidagcha:

$$T_I=15.4 \text{ teks.} \quad d = 2.$$

8. Iplarni pishitish mashinasida ipning chiziqli zichligi

a) texnik xarakteristika bo'yicha

$$T_i = 10 \times 2 - 120 \times 2 \text{ teks}$$

b) loyihada qabul qilingan iplarni chiziqli zichliklari quyidagicha:

$$T_I = 15,4 \text{ teks} \times 2.$$

3.2. Yarim tayyor mahsulotlarni pishitish darajasini hisoblash

Pishitish darajasi mahsulotni chiziqli zichligiga, tolaning uzunligiga va ipni qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlanadi. Bunda pishitish darajasi kritik qiymatdan katta bo'lib ketganda uning pishiqligi keskin kamayishini alohida hisobga olish lozim. Yigirish rejasini tuzishda pilik va ipning pishitilish darajasini hisoblab topiladi. [14]

Yigirish rejasini tuzishda ipning pishitilish darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T_{\text{И}}}}$$

bu yerda: α - pishitish koefitsienti:

T_I –ipning chiziqli zichligi.

Pishitish koefitsintlarini ipni chiziqli zichligiga, tolaning uzunligiga va ipning qo'llanish ko'lamiga qarab tanlanadi.

1. Pilikning 1 metridagi buram soni

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T_{\text{И}}}} = \frac{8,82 \cdot 100}{\sqrt{500}} = 39,4 \text{ m}^{-1}$$

2. Yigirilgan iplarning 1 metridagi buramlar soni ipning qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlangan pishitish koefitsientiga muvofiq hisoblab topiladi.

Tanda ihiga $\alpha = 36 - 38,4$

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T_{\text{н}}}} = \frac{36,4 \cdot 100}{\sqrt{15,4}} = 927,6 \quad m^{-1}$$

Arqoq ipiga $\alpha = 33,81$

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T_{\text{н}}}} = \frac{33,8 \cdot 100}{\sqrt{16,5}} = 832,1 \quad m^{-1}$$

3. Pishotilgan iplarning 1 metridagi buramlar soni ipning qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlangan pishitish koefitsientiga muvofiq hisoblab topiladi.

Tanda ihiga $\alpha = 36,4$; $a = 1,2$

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T_{\text{н}}}} = \frac{36,4 \cdot 1,2 \cdot 100}{\sqrt{31,2}} = 782 \quad m^{-1}$$

3.3. Mashinalarni chiqaruvchi a`zolarini tezliklarini qabul qilish va asoslash

Jihozlarni chiqarish qismlari a`zolari tezliklarini ularning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bunda tezlik jihozlarning aniq rusumini tanlashda hal qiluvchi o`rin tutadi. Odatda mashinaning texnik tavsifida tezlikni ma`lum oralig`i ko`rsatiladi. Yigirish rejasida tezliklarni maksimal imkoniyatdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. Tarash mashinasining nazariy unumdorligi

a) texnik xarakteristkasi bo`yicha

$$II = 280 \text{ kg/soat};$$

b) loyihada qabul qildim

$$II = 80 \text{ kg/soat}; \quad \mathcal{G} = 296,3 \quad m/\text{min}$$

2. Piltalash dastlabki o`tim mashinasida piltani chiqarish tezligi

a) texnik xarakteristkasi bo`yicha

$$\mathcal{G} = 1000 \quad m/\text{min} \quad gacha$$

b) loyihada qabul qildim

$$\mathcal{G} = 800 \text{ m/min}$$

3. Pilta qo`shish o`timi

a) Texnik xarakteristkasi bo`yicha

$$80-100 \text{ m/min}$$

b) Loyihada qabul qildim

$$80 \text{ m/min}$$

4. Qayta tarash o`timi

a) Texnik xarakteristkasi buyicha

$$n = 500 \text{ min}^{-1}$$

b) Loyihada qabul qildim

$$n = 350 \text{ min}^{-1}$$

5. Pitalash birinchi o`tim mashinasida piltani chiqarish tezligi

a) texnik xarakteristkasi bo`yicha

$$\mathcal{G} = 1100 \text{ m/min gacha}$$

b) loyihada qabul qildim

$$\mathcal{G} = 800 \text{ m/min}$$

3. Pitalash ikiknchi o`tim mashinasida piltani chiqarish tezligi

a) texnik xarakteristkasi bo`yicha

$$\mathcal{G} = 1000 \text{ m/min gacha}$$

b) loyihada qabul qildim

$$\mathcal{G} = 750 \text{ m/min}$$

4. Piliklash mashinasida urchuqning aylanish soni

a) texnik xarakteristkasi bo`yicha

$$n_y = 1500 \text{ min}^{-1} \text{ gacha}$$

b) loyihada qabul qildim

$$n_y = 1200 \text{ min}^{-1}$$

5. Yigirish mashinasida urchuqning aylanish soni

a) texnik xarakteristkasi bo`yicha

$$n_y = 25000 \text{ min}^{-1} \text{ gacha}$$

b) loyihada qabul qildim

$$n_y = 17500 \text{ min}^{-1}$$

6. O`rash avtomatlarida ipni qayta o`rash tezligi

a) texnik xarakteristkasi bo`yicha

$$g = 2200 \text{ m/min gacha}$$

b) loyihada qabul qildim

$$g = 1500 \text{ m/min}$$

7. Qo`shib o`rash mashinasi

a) Texnik xarakteristika bo`yicha

$$v = 1100 \text{ m/min}$$

b) Loyixada qabul qildim

$$v = 800 \text{ m/min}$$

8. Pishitish mashinasi

a) Texnik xarakteristika bo`yicha

$$n_y = 12000 \text{ min}^{-1}$$

b) Loyixada qabul qildim

tanda ipi uchun

$$n_y = 10000 \text{ min}^{-1}$$

Yuqorida qabul qilingan, hisoblab topilgan va asoslangan ma`lumotlar asosida qisqa yigirish rejasini tuzamiz (14-jadval).

Qisqa yigirish rejasi

O`timlar va jihozlar	Mahsulot chiziqli zichligi, teks		Cho`zish, ye	Qo`shish, d	Pishitish darajasi		Tezliklar	
	T_{KIR}	T_{ChIK}	E	d	α	K	n	ρ
Tarash mashinasi (paxta)	-	4500	120					300
Tarash mashinasi (lavsan)	4500	4500	110					300
Pitalash 0 o`tim (paxta)	4500	4500	8	8				800
Pitalash 0 o`tim (lavsan)	4500	4500	8	8				800
Pilta qo`shiah mashinasi	4500	80000	1,35	24			80	
Qayta tarash mashinasi	4500	4500	142,2	8				300
Pitalash 1-o`tim	4500	4500	6	6				800
Pitalash 2-o`tim	4500	4500	6	6				750
Piliklash mashinasi	4500	500	9	1	8,82	39,4		1200
Yigirish (arqoq)	500	16,5	30,3	1	33,8	832,1		17000
Qayta o`rqsh(arqoq)	16,5	16,5	1	1			1500	
Yigirish (tanda)	500	15,4	32,4	1	36,4	927,6		17000
Qayta o`rqsh(tanda)	15,4	15,4	1	1			1500	
Qo`shib o`rash (tanda)	15,4	15,4	1	2			8000	
Pishitish (tanda)	15,4	15,4	1	2	43,68	782		10000

